O‘ZBEK TILIDA FE’L SHAKLLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY USULLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 1- sonli texnikum

O'zbek tili fani o'qituvchisi

Esemuratova Zulfiya Asamatdinovna

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim darajasida ona tili darslarida fe’l so‘z turkumini o‘qitishning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, ushbu jarayonda qo‘llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar hamda raqamli texnologiyalar tahlil qilingan. Maqolada fe’lning leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rgatishda yodlashga asoslangan an’anaviy usullardan voz kechib, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat (PBL) va O‘zbek tili milliy korpusi ma’lumotlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar, zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini kontekstli hamda interaktiv o‘yinlar (“Klaster”, “Sahnadagi zamonlar”) orqali o‘zlashtirish, o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘qituvchining yetakchilik roli empirik asosda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, fe’l, zamonaviy metodika, interfaol o‘yinlar, raqamli ta’lim, milliy korpus, muammoli ta’lim, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’l, lingvistik kompetensiya.

Fe‘l mavzusini boshlang‘ich ta'lim darajasida o‘rgatishning asosiy maqsadlari sifatida so‘z turkumi sifatida fe‘l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o‘quvchilar nutqini fe‘llar bilan boyitish hamda og‘zaki va yozma nutqda fe‘ldan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim orfografik qoidalarni o‘zlashtirish belgilangan. Bu vazifalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, birgalikda amalga oshiriladi; shuning uchun o‘qituvchining vazifasi nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va nutqiy faoliyat orqali mustahkamlashdir.

Fe‘lning lingvistik xususiyatlari murakkabligi sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faqat uning muhim nazariy jihatlari bilan tanishtiriladi, material tanlashda esa ularning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishdagi zarurligi hisobga olinadi.

Fe‘lga so‘roq berishga o‘rgatish yuzaki emas, balki harakatni bajarish shaxsiga qarab turli savollar – nima qildi? nima qilayapti? nima qilmoqchi? – kabi so‘roqlarga javob berishni o‘rgatish orqali amalga oshirilishi kerak. Bunday so‘roqlarga javob berish o‘quvchilarni fe‘l zamonlariga tayyorlaydi: so‘roq orqali fe‘lning leksik ma’nosi va zamoniy-ma'naviy xususiyatlari aniqlanadi. O‘qituvchi dars davomida bolalarning o‘zlari bajarayotgan mehnat jarayonini tasvirlashni so‘raydi va suhbat o‘tkazadi. Suhbatda o‘qituvchi nima qildi? o‘quvchilar nima qildilar? hozir nima qilayapti? kabi savollarni qo‘llab, o‘qituvchi rahbarligida fe‘llarni so‘roqlab yozib boradi. Masalan: nima qildi? — so‘zladi, tushuntirdi; nima qildilar? — tingladilar, yozdilar; nima qilayapti? — tushuntirayapti, so‘rayapti; nima qilayaptilar? — javob berayaptilar, yozayaptilar; nima qiladi? — tekshiradi, ko‘radi; nima qiladilar? — ishlaydilar, bajaradilar. Suhbat va o‘quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo‘lagi jihatidan tahlil qilish orqali xulosa chiqariladi: predmet harakatini bildirgan so‘zlar fe‘l deb ataladi va fe‘l gapda kesim vazifasini bajaradi.

Boshlang‘ich sinflarda fe‘lni o‘rgatish uchun so‘roq berib fe‘lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe‘lni tanlash, aralash berilgan so‘zlardan yoki rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlar muhim o‘rin tutadi. Dasturga ko‘ra bu bosqichda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar o‘rgatiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi: o‘quvchilar so‘roq berib fe‘llarni topadilar, ularning ma’nosini qiyoslaydilar va o‘qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa shundan iboratki, fe‘l harakatning bajarilganini (o‘qidi, so‘zladi), hozir bajarilayotganini (tushuntirayapti) yoki endi bajarilishini (boradi) bildiradi — bunday fe‘llar bo‘lishli fe‘llar deb ataladi. Ayrim fe‘llar esa harakatning bajarilmaganligini (o‘qimadi), hozir

bajarilmayotganini (oʻqimayapti) yoki keyin ham bajarilmasligini (bormaydi) bildiradi — bular boʻlishsiz feʻllardir. 4-sinfda feʻlni oʻrganish bosqichi feʻlning shaxs-son qoʻshimchalari bilan tuslanishi va zamon qoʻshimchasi bilan oʻzgarishi haqidagi tushunchalarni berish, feʻlning leksik ma’nolari, boʻlishli va boʻlishsizligi hamda gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu bosqichda nutqda feʻldan ongli foydalanish, sinonim va antonim feʻllar, koʻchma ma'noda ishlatilgan feʻllar bilan matn kontekstida ishlash kabi mashqlar orqali oʻquvchilarning lingvistik nazariy tushunchasi rivojlantiriladi. Shuningdek, oʻtgan zamon qoʻshimchasining talaffuzi va yozilishini oʻrgatish ham muhim vazifa sifatida belgilanadi. Qoʻshma feʻllar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushuncha ham bu bosqichda kiritiladi va dastlabki koʻnikma shakllantiriladi. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari fe'l shakllarini o'qitishda zerikarli yodlash usullaridan voz kechib, interfaol, raqamli va amaliy metodlarga tayanishni tavsiya etadi. Raqamli va elektron dasturlar hamda korpus lingvistikasi ushbu jarayonga samarali qoʻshiladi. Oʻzbek tili milliy korpusi ma'lumotlaridan foydalanib, feʻllarning real matnlarda, masalan, oʻtgan yoki hozirgi zamonda qanday qoʻllanilishi oʻrganilishi mumkin; bu esa feʻlning leksik va grammatik xususiyatlarini empirik asosda talabalarga koʻrsatadi. Elektron platformalar va ilovalar grammatik qoidalarni mustahkamlovchi testlar, krossvordlar va oʻyinlarni interaktiv tarzda taqdim etadi, bu oʻquvchilarning bilimini amaliy sinovdan oʻtkazish va motivatsiyani oshirishda yordam beradi.

Interfaol metodlar va oʻyin texnologiyalari darslarni jonlantirish va oʻquvchilarni faol jalb etish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, "klaster" (tarmoqlash) usuli orqali doskaning markaziga "Feʻl" soʻzi yozilib, uning yoniga zamon (oʻtgan, hozirgi, kelasi), nisbat (majhul, orttirma) va mayl shakllari tarmoqlanadi; bu usul mavzuni vizual tarzda tashkil etib, xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Rollik oʻyinlar — "sahnadagi zamonlar" — talabalarga o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llaridan foydalanib dialoglar tuzish

va sahnalashtirish imkonini beradi, bu esa kommunikativ kompetentsiyani oshiradi. "Besh qadam" yoki Venn diagrammasi fe'lning sifatdosh va ravishdosh shakllarini solishtirish uchun qulay bo'lib, o‘xshash va farqli tomonlarni ko‘rsatadi. Bu interfaol mashqlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va grammatika qoidalarini mustaqil ravishda o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Mavzuviy izchillik — modul yondashuvi fe'l mavzularini uzviy va mantiqiy ketma-ketlikda o'rgatishni ta'minlaydi. Asosiy zamon shakllari o‘tirilgandan so‘ng ularning uslubiy xususiyatlarini, masalan, badiiy asarlardagi o‘rnini tahlil qilish yoki fe'l shakllarining gapdagi vazifasini sintaktik tahlil orqali aniqlash muhim hisoblanadi. Bu yondashuv fe‘llarning faqat grammatik jihatlarini o‘rgatib qolmay, balki ularning stilistik va kontekstual ishlatilishiga ham e'tibor beradi, shu tariqa o‘quvchilarning til madaniyatini kengaytiradi.

Muammoli ta'lim va loyihalashtirilgan faoliyat (PBL) ham fe'l shakllarini o'rganishda samarali metod hisoblanadi. O'quvchilarga tayyor qoidani berish o'rniga matn berilib, ular undan fe'l shakllarini topib, qoidani o'zlari chiqarishga undaladi. Bunday yondashuv mustaqil fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini oshiradi. Kichik guruhlarda amalga oshiriladigan mini-loyihalar — masalan, "Fe'l zamonlari va ularning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi ishlar — o'quvchilarga fe'l shakllarini amaliy va kontekstli ravishda o'rganish imkonini yaratadi. Loyihalar taqdimot orqali muhokama qilinib, guruhlararo fikrlash va bahslashish jarayonlari orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Amaliyot va kuzatishga asoslangan yondashuv ham muhimdir. O'quvchilar o'z hayotidagi, darsdagi va atrof-muhitdagi harakatlarni kuzatib, fe'l shakllarini real vaziyatlarda aniqlaydilar. Masalan, bahorda amalga oshiriladigan kuzatuvlar o'quvchilarga hozirgi, o'tgan va kelasi zamon fe'llarini tabiat hodisalari bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. Olingan leksik materiallar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va tartibga solinadi, bu esa mavzuning strukturaviy idrok etilishini ta'minlaydi.

Fe'l shakllarini o'qitishda zamonaviy usullarni amalga oshirishda o‘qituvchining rolini ham maxsus qayd etish lozim. O‘qituvchi suhbat va kuzatuvlar orqali o‘quvchilarda fe’l kontseptini shakllantiradi, ular bilan savol-javob olib boradi, fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini misollar orqali ko‘rsatadi va yangi raqamli vositalarni dars jarayoniga integratsiyalaydi. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchilarda so‘roqdan foydalanib fe‘llarni aniqlash, gap tarkibida fe‘lni to‘g‘ri tanlash va imlo qoidalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan mashqlarni tashkil etadi. Orfografik qoidalarni, xususan bo‘lishsizlik qo‘shimchasining talaffuzi va imlosini o‘rgatish ham dars rejasida muhim joy egallaydi.

Yuqorida tilga olingan zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonini faollashtiradi, yodlashga asoslangan an'anaviy metodlardan voz kechishga yordam beradi va o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Raqamli vositalar, korpus asosidagi tahlillar, interfaol o‘yinlar va loyiha faoliyati orqali o‘quvchilar tilning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirilgan holda o‘rganadilar. Bunday yondashuvlarning amaliy natijasi — fe‘l shakllarini to‘liq va ongli egallash, nutqiy kompetentsiyaning oshishi hamda boshlang‘ich bosqichdan boshlab grammatik bilimning mustahkamlanishidir.

Xulosa o‘rnida ta'kidlash lozimki, O'zbek tilida fe'l shakllarini o'qitishda samarali natijaga erishish uchun interfaol, raqamli va amaliy metodlarni birlashtirish zarur. Darslar mavzuviy izchillik asosida tuzilishi, o‘qituvchilar kuzatish, suhbat, muammoli ta'lim va loyiha ishlari orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlamog‘i lozim. Raqamli resurslar va korpus lingvistikasi esa fe‘llarning real nutq kontekstidagi ishlatilishini namoyon qilib, nazariy bilimlarni amaliy dalillarga asoslash imkonini beradi. Shu tariqa zamonaviy usullar fe‘l mavzusini boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida tabiiy, qiziqarli va samarali o‘qitishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B. Hozirgi o„zbek tili (kirish, fonetik sath, liksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: Tafakkur bo„stoni, 2018.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi avlod, 2009.
3. To„xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O„zbek tili o„qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.
4. Holmurodov I. Ona tili fani bo„yicha o„quvchilarda mustaqil ishlash ko„nikmalarini shakllantirish. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali, 2006. 2-son, 6-9-betlar.
5. Ahmedova M. O„zbek tilini o„qitishda kompyuterdan foydalanish. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali, 2006. 2-son, 73-75-betlar.